UDK 159.9:37.015.3

AMALIYOTCHI PSIXOLOG FAOLIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Jalilova Saboxat Xalilovna,
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

Hozirgi zamon psixologiyasi – psixik hayot qonuniyatlari va faktlari, shaxsning mavjud bo‘lishi va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganadi. Zamonaviy psixologiya ko‘p tarmoqli fan bo‘lib, uning sohalari orasida amaliy psixologiya alohida o‘rinni egallaydi. Amaliy psixologiyaning asosiy vazifasi nafaqat insonning individualligini, shu bilan birga unga ko‘rsatiladigan ta’sirotlarning xususiyatlarini ham o‘rganishdan iborat bo‘lib, psixologik yordam tarzida amalga oshiriladi.

Psixologik yordam – insonda yuzaga kelgan turli toifadagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularni yumshatish yoki oldini olishga qaratilgan, diagnostika, maslahat, psixoterapiya va psixokorreksiya tarzidagi amaliy psixologiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimidir.

Amerikalik psixolog Devid Mayersning ta’kidlashicha, psixologiyaning turli sohalari mavjud. Ba’zi psixologlar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullansalar, boshqalari amaliy faoliyatni amalga oshiradilar [4]. Biologik muammolardan tortib madaniy muammolargacha shug‘ullanar ekanlar, psixologlar psixik jarayonlar va inson xulqini tavsiflash hamda tushuntirishdek yagona umumiy muammoni tadqiq qiladilar.

Olimlarning yana bir guruhi tatbiqiy psixologiya bilan shug‘ullanib, amaliy muammolarni o‘rganadilar. Masalan, tashkiliy-ishlab chiqarish psixologiyasi namoyandalari insonning ish joyidagi xulqini tadqiq qilib, foydali tavsiyalarni taklif etadilar.

Shuningdek, psixologlar muvaffaqiyatli nikoh qurish, xavotirlik va depressiyani yengib o‘tish, bolalarni tarbiyalash yuzasidan maslahatlar beradilar. Bu ko‘proq klinik psixologlar tomonidan amalga oshiriladi va ularning asosiy vazifasi bemorlarni o‘rganish, diagnostika qilish va davolashdan iborat bo‘ladi. Amaliy tayyorgarlikdan so‘ng ular test o‘tkazish, psixoterapiya bilan shug‘ullanish, psixik sog‘lomlashtirish dasturlarini tuzish, ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Bunga qarama-qarshi ravishda, psixoterapiya bilan shug‘ullanuvchi psixiatrlar vrach bo‘lib, dori-darmonlar tavsiya qilish va psixik buzilishlarning fiziologik sabablarini davolash huquqiga ega bo‘ladilar [4].

Rus psixologi G.S. Abramovaning ta’kidlashicha, amaliy psixolog kasbiy faoliyati modeli haqidagi masalaning muhim jihati shundaki, amaliy psixologning ishi o‘z mohiyat-mazmuniga ko‘ra o‘ziga xos, ya’ni u insonning individualligi bilan bog‘liq

[1]. Bunda psixologning o‘zi ham individuallikka ega bo‘lgan inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixolog – murakkab kasbiy faoliyat sohasida ish olib boruvchi aqlli, xayrixoh, o‘ziga maftun etuvchi inson.

Psixologik xizmatni amaliyotchi psixologlar olib boradilar. Ular o‘z faoliyatlarini turli muassasalarda amalga oshiradilar. Psixolog qayerda ishlamasin, u turli yoshdagi, turli ijtimoiy mavqega ega, lekin shu bilan bir vaqtda o‘z individualligiga ega bo‘lgan, qaytarilmas xususiyat va shaxs sifatlariga ega insonlar bilan ishlaydi.

Biroq psixolog ham inson. Uning individualligi qanchalik yorqin namoyon bo‘lsa, uning kasbiy mahorati ham shunchalik yuqori bo‘ladi.

Amaliy psixolog faoliyatini tushunish va baholash ham murakkab. Psixologiyadan uzoq bo‘lgan odamlar psixolog faoliyatini tashqi hamda muhim bo‘lmagan ko‘rsatkichlar:

tadqiq qilingan mijozlar miqdori;

berilgan tavsiyalar;

o‘tkazilgan konsultatsiyalar;

turli xil tadbirlar va ulardagi chiqishlar asosida baholaydilar.

Bularning barchasi juda muhim va zarur. Biroq bunda eng muhim jihat – psixolog faoliyati va muloqoti natijasida mijozda yuzaga keladigan o‘zgarishlar hamda ularning qanday yuzaga kelishi masalasi diqqat markazidan chetda qoladi, deb ta’kidlaydi I.V. Dubrovina [2].

Psixologlarning kasbiy faoliyati mazmuni, uning shakllari va amalga oshirish metodlari masalasini tushunishga nisbatan turli qarashlar kuzatiladi. Bu nima bilan bog‘liq?

Birinchidan, bu psixologlarni kasbiy tayyorlash bilan bog‘liq. Hozirgi kunda psixologlarni psixologik tayyorlash tartibga solinmagan, uning mazmuni va darajasi ta’lim qayerda olib borilishi va ularni kimlar o‘qitishiga qarab farqlanadi. Kasbiy tayyorgarlikning mohiyati va murakkabligi shundaki, mutaxassis sifatida psixolog chuqur bilimlarga ega bo‘libgina qolmay, insonning real hayotiga ham bilimdonlik bilan mo‘ljal ola bilishi kerak.

Ikkinchidan, bu psixologning umumiy taraqqiyot darajasi va yo‘nalganligi, uning shaxsiy xususiyatlari, ijtimoiy hayotga qanchalik qo‘shilganligi, turli madaniyat xususiyatlarini hisobga olish qobiliyatlariga bog‘liq.

Uchinchidan, bu psixolog faoliyat yuritadigan muassasalarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning har biri psixolog faoliyatiga turlicha talablar qo‘yadi.

To‘rtinchidan, bu psixolog shaxsiy hayotining xususiyatlari: shaxsiy hayotining farovonligi, yaqinlari bilan o‘zaro munosabatlari, moddiy ta’minlanganligi va zarur turmush sharoitlarining mavjudligiga bog‘liq. Uning mas’uliyati juda yuqori, lekin doim ham himoyalangan emas [3].

Amaliyotchi psixolog faoliyatining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri uning mijoz bilan o‘rnatadigan professional munosabatlaridir. Psixologik yordam jarayonida

mijozning shaxsiy xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ehtiyojlari va muammoga bo‘lgan munosabati hisobga olinishi lozim. Har bir insonning muammosi o‘ziga xos bo‘lgani sababli, bir xil usul yoki tavsiyani barcha mijozlarga bir xilda qo‘llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois amaliyotchi psixolog vaziyatni to‘g‘ri baholashi, mijozning individual xususiyatlarini aniqlashi va unga mos yondashuvni tanlashi zarur.

Psixologning kasbiy faoliyatida muloqot alohida ahamiyatga ega. Mijoz bilan ishonchli munosabatni shakllantirish, uni tinglay bilish, fikrini bo‘lmasdan eshitish, uning kechinmalarini tushunishga intilish psixologik yordamning samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Psixolog muloqot jarayonida o‘zining shaxsiy qarashlarini mijozga majburan singdirmasligi, balki mijozning muammoni anglashiga, mavjud imkoniyatlarini ko‘ra olishiga va mustaqil qaror qabul qilishiga ko‘maklashishi kerak.

Amaliyotchi psixolog faoliyatida kasbiy etika ham muhim o‘rin tutadi. Mijoz tomonidan bildirilgan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash, insonning sha’ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning shaxsiy hayotiga ehtiyotkorlik bilan yondashish psixologning muhim kasbiy vazifalaridandir. Psixologik yordam jarayonida insonning ishonchini suiiste’mol qilmaslik, mijozning shaxsiy xususiyatlari va hayotiy vaziyatini hisobga olish mutaxassisdan yuqori darajadagi mas’uliyatni talab etadi.

Shuningdek, amaliyotchi psixolog doimiy ravishda o‘z kasbiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borishi zarur. Psixologiya fani muntazam ravishda rivojlanib, yangi ilmiy qarashlar, tadqiqot natijalari va amaliy metodlar bilan boyib bormoqda. Shu sababli mutaxassisning oliy ta’lim jarayonida olgan bilimlari uning butun kasbiy faoliyati uchun yetarli bo‘lib qolmaydi. U ilmiy va amaliy adabiyotlarni o‘rganishi, kasbiy tajribasini tahlil qilishi, yangi yondashuvlarni o‘zlashtirishi va o‘z faoliyatini takomillashtirib borishi lozim.

Amaliyotchi psixolog faoliyatining yana bir muhim jihati shundaki, u turli yosh va ijtimoiy guruhlarga mansub insonlar bilan ishlashi mumkin. Ta’lim muassasalarida bolalar va o‘smirlar, ota-onalar hamda pedagoglar bilan; tashkilotlarda esa xodimlar va rahbarlar bilan ishlash jarayonida psixologdan turli vaziyatlarga moslasha olish qobiliyati talab etiladi. Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda ularning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir.

Psixolog faoliyatining natijadorligi faqat o‘tkazilgan konsultatsiyalar yoki qo‘llanilgan psixodiagnostik metodlar soni bilan belgilanmasligi kerak. Asosiy e’tibor psixologik yordamning inson hayotida qanday ijobiy o‘zgarishlarga olib kelganiga, mijozning o‘z muammosini anglashiga, mavjud imkoniyatlarini aniqlashiga va hayotiy vaziyatlarda mustaqil ravishda to‘g‘ri yo‘l topishiga qaratilishi lozim. Shu ma’noda, amaliyotchi psixolog faoliyatining samaradorligi tashqi ko‘rsatkichlardan ko‘ra, mijoz bilan olib borilgan ishning mazmuni va natijasi bilan chambarchas bog‘liq.

Bundan tashqari, psixologning o‘z-o‘zini anglashi va o‘z faoliyatini tahlil qila olishi ham kasbiy rivojlanishning muhim shartidir. Psixolog boshqa insonlarning

muammolari bilan ishlash jarayonida o‘zining hissiy holati, munosabati va kasbiy imkoniyatlarini ham nazorat qila olishi kerak. Chunki psixologik faoliyat bevosita insonning ichki dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib, undan nafaqat nazariy bilim, balki yuqori darajadagi shaxsiy yetuklikni ham talab qiladi.

Shunday qilib, ish va hayot sharoitlarining turlicha bo‘lishi, mutaxassislarning individual shaxs xususiyatlariga qaramay, psixologlik kasbi muhim, kasbiy va axloqiy jihatdan qadrlanadigan kasb hisoblanadi. Amaliyotchi psixologning kasbiy mahorati uning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, muloqot madaniyati, individual yondashuvi, kasbiy etikaga amal qilishi va inson shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli amaliy psixolog faoliyatini takomillashtirishda mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham doimiy e’tibor qaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абрамова Г.С. Практическая психология. – Москва: «Академический проект», 2001. – 63 б.

2. Дубровина И.В. Практическая психология образования. – Санкт-Петербург, 2004. – 94 б.

3. Jalilova S.X., Qurbonova M.A. Ўзбекистонда психологик хизмат: муаммо ва ечимлар // Психология. Илмий журнал. – Бухоро, 2019. – № 2.

4. Майерс Д. Психология. – Минск, 2008. – 24 б.

5. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

6. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.